

**LINGVOMADANIY BIRLIKLARDAN BIRI METOFORA USULINING
TOG'AY MUROD ASARLARIDA TAHLILI.**

*Qarshi davlat universiteti Lingvistika(o'zbek tili) yo`nalishi 2-kurs
magistranti **Dilmurodova Madinabonu Sirojiddin qizi.** +99877 076 60 44
1-sho`ba*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Lingvomadaniy birliklardan biri hisoblangan metofora usuli haqida ma'lumot berilgan va shu bilan bir qatorda Tog'ay Murodning asarlari doirasida metofora usulidan foydalanilgani va ularning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nominativ birlik, obrazit, fundamental bilish, frazeologik birlik, xalq madaniyati, mentalitet, ichki ma'no, tasviriylik, kognitologik yondashuv, konnotativ ma'no.

Kirish: Butun dunyo jahon adabiyoti na'munalarida lingvomadaniy birliklardan foydalanish odat tusiga aylangan. Lingvomadaniy birliklar doirasiga ramziy ma'noga ega bo'lgan va madaniy ma'lumotlarni aks ettiruvchi har qanday til birliklari **frazeologik birliklar, metaforalar, maqollar** va boshqalar kiradi. Til madaniyatlarining milliy o'ziga xosligini o'rganish samaradorligi uchun ularga butun lingvomadaniy makonni shartli ravishda "ma'nolar nurlari" - tushunchalarga ajratuvchi kontsepsiya sohasi prizmasi orqali qarash mumkin. Kontsepsiya nazariyasi asosan lingvomadaniy birliklar doirasida faoliyat ko'rsatib, voqelikni etnik-madaniy idrok etish xususiyatlarini aniqlash uchun ko'p darajali til birliklarini birlashtirishga imkon beradi. Ayniqsa bular orasida metofora usuli juda muhim va keng miqyosida foydalaniladigan lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Metafora ong universalisasi bo'lib, doimiy tarzda bu usul tadqiqotchilar uchun qiziq sanaladi. Shu sababli ko'p holatlarda yaratilgan metaforologik tadqiqotlar "metaforologiya" ta'limoti ostida birlashtirilib, davrlashtirilgandir. Uning lingvomadaniy ildizlari esa kognitologik yondashuvga borib taqaladi. Buning boisi metafora sof lingvistik hodisa sifatida namoyon bo'lmaydi. Aksincha, u olamni konseptuallashtiruvchi

omil, shuningdek, tafakkurni akslantiruvchi unsur sanaladi. Ma'lumki, metafora tilshunoslikka ritorika san'ati orqali kirib kelgan bo'lib, xususan, yunon notig'i Gorgiy "Gorgiy figuralari" deb nomlanadigan usullar qatoriga metaforalar, tovush takrorlari, antiteza shaklida tuzilgan gap (jumla) lar va sh.k. kiritadi¹. Aristotel davridan boshlab, "metaforaning "san'at", uni qo'llay olish qobiliyat ya'ni "iste'dod", - deya baholanishi metafora milliy ong va tafakkur mevalarini o'ziga xos tarzda jamlaydigan bebaho boylik ekanligidan nishona bo'ldi.

Asosiy qism: Yuqorida aytib o'tganimizdek metofara lingvomadaniy birliklardan biri hisoblanib ma'no ko'chish jarayonidir. Metaforaning barcha turi individual-uslubiy metaforalar sifatida baholanib, unda ijodkorning estetik maqsadi borliqni subyektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlashi, tasvirlashi asosida yuzaga keladi. Individual-uslubiy metaforalarda hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi². Matn tilshunosligiga doir manbalarda metaforalar uslubiy jihatdan badiiy bo'yoqdorligi va tilda qo'llanishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1) badiiy bo'yoqdorligi, obrazlilik yo'qolgan metaforalar (stulning oyog'i, ko'chaning boshi); Bu tur lingvistik metafora hisoblanib, bunday metaforalar asosan atash, nomlash vazifasini bajargani uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, o'zi ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi:

2) tilda mavjud (uzual), muallifi noma'lum metaforalar (alp qomat, tulki, quyon yurak); Bu tur til tashuvchilariga tanish ma'noli, og'zaki uslubda ham keng qo'llanishga ega, diaxron tabiatli, biroq badiiy bo'yoqdorligi yo'qolmagan ko'chimlarni o'zida iste'foda etadi. Badiiy matnda muallifning bunday metaforalardan foydalanishi asarning xalqchilligini oshiradi, matn tilining sodda, tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

3) mualliflik, ya'ni individual-uslubiy metaforalar: Tabiatni to'lg'oq tutdi... (Oydinda yurgan odamlar)³ Bu tur individual-uslubiy metaforalar sifatida baholanib, unda ijodkorning estetik maqsadi borliqni subyektiv munosabatini

¹ Кобулжонова Г. Метафорининг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз... дис... – Тошкент, 2000. – Б.10.

² Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. док-ри дисс... – Самарқанд, 2020. – Б. 150-193.

³ Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар. – Тошкент: Sano-standart, 2017.

qo'shib ifodalangan holda nomlashi, tasvirlashi asosida yuzaga keladi. Individual-uslubiy metaforalarda hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi.

Metafora tilda yangi so'zlarning paydo bo'lish omillaridan biri bo'lib, matn yoki nutq vositasida bayon qilingan har qanday axborot yozuvchining ma'lum maqsadi, yangidan yangi qirralarini ifoda etish uchun xizmat qiladi. Diskurs ishtirokchilari tomonidan matnda metaforik ma'noda qo'llangan so'z ta'sirida boshqa birliklarning ham ko'chma ma'noda qabul qilinishi matndan anglashilgan makropropozitsiyaning ham retsipient ongida metaforik xarakter kasb etishiga olib keladi:

...Yuzlarida, ko'ngillarida yorug' tabassum o'ynadilar.

— Hay-hay-hay...

— Ko'ngillari buzilib o'tirgandir.

— Kechroq enam, bobongning mol-hollariga qarayin deb, darichadan qaytib keldi. O'zlari qarayotgan ekanlar, vayron ko'ngillarini battar vayron qilmayin deb bormadim, dedi (Oydinda yurgan odamlar).

Oshiq va ma'shuq suhbatida aks etgan ushbu makropropozitsiya (matnda ifodalangan obyektiv mazmun) da yorug' tabassum – sifat+ot ko'rinishidagi metaforik birikma bo'lib, Qoplonning kelajakka, yashashga bo'lgan ishonchi, taskin topgan ko'ngli demakdir. Tabassum o'ynamoq – ot+fe'l qolipidagi birikmali metafora orqali qahramonning o'z hayotidan roziligi, ko'ngil xotirjamligi obrazli tarzda ifodalangan. Ko'ngli buzilmoq – (“mungraymoq”, “mungraytirmoq”ma'nosida) frazeologik metafora; vayron ko'ngil — sifat+ot ko'rinishidagi birikma-metafora orqali yozuvchi Qoplon va Oymomoning ayanchli qismatini nazarda tutgan. Fanda “obraz”so'zi paydo qilmoq, tasvirlamoq ma'nolarini ifodalovchi “razit”, “obrazit” so'zidan olinganligi arab tilidagi “bade” so'zi (paydo qilmoq, yaratmoq, ijod qilmoq) orqali dalillanadi. Obraz – muallif ijodiy kashfiyoti hosilasi, olamga munosabatining badiiy talqini. Masalan: Oymomo dasturxondan ko'z olmadi. Toshdan-da og'ir sukunat bo'ldi, azadan-da qayg'uli sukunat bo'ldi! Bolali uy xandon bo'ldi, bolasiz uy zindon bo'ldi! (Oydinda yurgan

odamlar)⁴. Matndagi “ko‘z olmoq”, “og‘ir sukunat”, “qayg‘uli sukunat” ifodalari qahramon ruhiy holatini anglatadi, “Bolali uy xandon bo‘ldi, bolasiz uy zindon bo‘ldi” paremiologik mazmunli obrazli-motivlashgan ifoda Qoplonbek va Oymomo turmushi misolida oilaviy baxtning farzandga bog‘liqligini ko‘rsatishda ishlatilgan.

.....Askar tappilarga qaradi. Ko‘ngli o‘ynadi... O‘lmayinning kunidan bilaklarini turdi... Bir oqshom otasi masalani ko‘ndalang qo‘ydi: — Mana, mehmonligingizda qaridi, serjant Orziqulov. ...Askar harbiy xizmatdan qaytib, ijroqo‘m raisi bo‘laman, deya niyat qilib edi. Ana shu niyatini aytish uchun tili aylanmadi, yelka qisib qo‘ya qoldi⁵. (Tog‘ay Murod, Tanlangan asarlar).

Keltirilgan matndagi “Ko‘ngli o‘ynadi”, “o‘lmayinning kunidan”, “masalani ko‘ndalang qo‘ydi”, “tili aylanmadi”, “yelka qisib qo‘ya qoldi”, “mehmonligingiz-da qaridi” metaforik ifodalari ham voqelikni obrazli tasvirlashning milliy xoslangan namunalaridir. Mazkur misollar orqali shuningdek, Tog‘ay Murod nasridagi metaforik ifodalarning so‘z, birikma, gap, matn va turg‘un birikmalar tarzida kelib, matnning kognitivdiskursiv jihatlarida aks etgan reallikning muhim obrazli ifodasi ekanligi misollar orqali tahlil qilindi:

....Barchin yuzli bo‘ldi, saraton yulduzli bo‘ldi, parishon zulfli bo‘ldi (Oydinda yurgan odamlar).

Barchin yuzli birikmasidagi Barchin pretsedent nom, bu esa badiiy matnda metafora hosil qiluvchi yana bir unsur poetonimlarning faolligini dalillaydi. Leksik-semantik tabiati bilan aynan ikkinchi tur metaforalar lingvokulturologik tadqiq uchun juda qulay. Biroq pragmatik jihatdan bu o‘quvchilar auditoriyasining matn muallifi bilan bir etnosga mansub bo‘lishini talab qiladi va o‘quvchilar auditoriyasini biroz chegaralaydi, badiiy matn tarjimasini murakkablashtiradi. Bunday holda tarjimonning ko‘pincha, agar metaforada pretsedent birliklar ishtirok etmagan bo‘lsa, tarjima qilinayotgan tildan ekvivalent metaforologik birlik topishi kuzatiladi. Tog‘ay Murod nasrida shu tur metaforalardan keng va mohirona foydalanilgan. Asarlar uslubi o‘zining xosligi, xususan, metaforalarning takror qo‘llanishi

⁴ Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар. — Тошкент: Sano-standart, 2017.

⁵ <https://kitobxon.com/oz/kitob/togay-murod-tanlangan-asarlar>
www.tadqiqotlar.uz

birliklarning uslubga xususiylashuvi va ikkilamchi ma'no kasb etib individual-uslubiy metaforalar xarakterini namoyon etishiga olib kelgan. T.Murod metaforalari turli ma'no tovlanishlari va nozikliklari bilan makon va zamon kesimidagi voqeaning xarakteri, shart-sharoitini gavdalantirishda benazir vositadir:

....To'yxona yonidagi hovlida erkaklar davra qurdi. Bu davrada olish bo'ladi. Davra uzra simchiroqlar osildi... Oy qishloq uzra osilib qoldi. Yulduzlar g'uj-g'uj yondi. Davra aylanasi g'ilam to'shaldi, ko'rpacha to'shaldi (Tog'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi).

Bunda simchiroqlarning osilishi – davrada kurash bo'lishi va bu kurashning kechki paytda boshlanishiga ishora. Tipik qishloq urflariga ishora bo'lgan bu belgi oy qishloq uzra osilib qoldi va yulduzlar g'uj-g'uj yondi jumlasida yordamida kuchaytirilib, qorong'i tushib qolgan eskirgan metaforasi ta'sirida badiiy tus olgan. Bunda simchiroqlar+oy+yulduzlar nominativlarining tungi tabiat portretiga birlashtirilishi evaziga tasvir jozibasining bor bo'y-basti bilan his etilishiga erishilgan.

Ijodkor va qahramon o'y-xayoli, ruhiyati undagi ruhiy qiynoqlar iskanjasi bilan uyg'un tarzda tasvirlangani quyidagi misollarda ham kuzatiladi: Karim po'stakning ko'ngli kir (kek saqlaydigan, g'araz niyatli) ekan!..Bo'ri polvon rais bilan osh-qatiq bo'lmadi (osh-qatiq bo'lmoq – biror shaxs bilan bordi-keldi qilmoq, yaqin munosabatda bo'lmoq)

.... Oftob qirni qizdirdi. Havoda bir nima ko'zni qamashtirdi. Jimir-jimir mavjlandi. Bu – xil bo'ldi. Oltin boshhoqlarto'lg'ondi... Bo'ri qiyofni qizlarga gartdak-gartdakdan berdi, Momoqizga mo'lroq berdi. Qizlar Bo'rini kunilab-kunilab ketdi. — Xasis, Bo'ri xasis! — dedi. —Egachim elakli bo'ldi, elagi tilakli bo'ldi! — dedi ⁶. (Tog'ay Murod, Tanlangan asarlar)

Ushbu matnning yaxlit yig'iq kompozitsiyani kasb etishida undagi har bir jumlagacha "sohib yuborilgan" metaforik mazmunning o'rnini bor. Jumladan, Havoda bir nima ko'zni qamashtirdi. Jimir-jimir mavjlandi jumllaridagi bir deysisi orqali oltin boshhoqlar parafrasiga ishora qilingan; kunilab-kunilab ketdi(qizlarning Bo'ri xatti-harakatlaridan noroziligi, uni xushlamaganligini anglatish uchun "kunilab"

⁶ <https://kitobxon.com/oz/kitob/togay-murod-tanlangan-asarlar>

frazemasi takror tarzda qo'llangan) frazemasi hamda Egachim elakli bo'ldi, elagi tilakli bo'ldi (har bir narsani birovdan qizg'anadigan, boshqalarning hojatini chiqarmaydigan qizg'anchiq odamlar) maqoli singari milliy-mental qiymatli birliklar semantik zahirida metaforik asos mavjud.

Tog'ay Murodning yana bir metofora usulida ma'no ko'chmalariga boy bo'lgan "Oydinda yurgan odamlar"⁷ asaridan quyda bir nechta misollar keltiramiz, aynan yozuvchi bu uslub orqali asarning mazmunini yanada boyitgan.

Shunda, bu bola yo qattiq qayg'uda, yo bir nimani oylab oyiga yetolmayapti, deymiz. 5 bet Metafora

Kongliga otirmaydiganlar bilan salomlashgisi-da kelmaydi! (5-bet)

Hayotda bo'lmish ilkis qiliqlar, iring gaplarni darhol ilg'ab oldi. (9-bet)

Zarra boshidan hayotga kattalar ko'zi bilan qaradi. (9-bet)

Keyin, qaynsinglisi ko'ngliga qo'l soldi. (11-bet)

Kuyov-qayliq o'z xayollarini bir-biridan yashirdi. (25-bet)

Ko'lmakka tomchilamish yomg'ir chulduradi. (40-bet)

Yo'l yoqalarida adirlar bo'ldi. (45-bet)

Tugunni xurjun o'ng ko'ziga soldi. Chap ko'ziga tokqaychilarni soldi. (49-bet)

Xursandboy o'gay ota qo'lida katta bo'ldi. 73-bet. Metafora Navro'zchilar ko'ngli ko'klam bo'ldi. (76-bet)

Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniy birliklar barcha adabiy janrlarda keng qo'llaniladigan muhim omil sanaladi. Aynan metofara usuli orqali T.Murodning deyarli barcha asarlarida xalqning ma'naviy dunyosi, mentaliteti, o'ziga xos xarakteri, davrning ko'rinishi, insonlarning madaniy munosabatlari aniq ifodalab berilgan. Zero, ijodkor asarlaridagi qahramonlar siymosida o'zi orzu qilganidek o'zbek xalqiga haykal qo'ygan. Metaforik ifodalar tilning asosiy lingvomadaniy birliklari hisoblangan maqollar, iboralar, o'xshatishlar (epitetlar) bilan bir qatorda turadi. Zotan, metafora o'zida fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi,

⁷ Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар. – Тошкент: Sano-standart, 2017.

chunki u milliy madaniy dunyoqarashga asoslangandir. Shuningdek metofora usulidan unumli foydalanish o'quvchini asarga bo'lgan qiziqishini orttirish bilan bir qatorda, uni chuqur mushohada qilishga ham undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. T.2015.
2. Sayidrahimova N., Qobulova U. Lingvokulturologiya tilshunoslikning alohida sohasi. O'zbek tili va adabiyoti.2015.4-son.
3. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз...дисс... – Тошкент,
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2012.-№ 5.
5. 2. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. док-ри дисс... – Самарқанд, 2020. – Б. 150-193.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. O'qituvchi. 1978.
7. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изохли лугати. Тошкент. Укитувчи, 1985. 104- бет.
8. Будаев Э.В. Когнитивная теория метафоры: генезис и эволюция. www.pglu.ru.vestnik.detail.php?/
9. Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар. – Тошкент: Sano-standart, 2017.
10. <https://kitobxon.com/oz/kitob/togay-murod-tanlangan-asarlar>.